

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR

SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI SAMARQAND
FILIALI**



**“JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIIY HAYOTIDA DEMOKRATIK
O‘ZGARISHLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

**1-MAVZU: JAMIYATNING SIYOSIIY,
IQTISODIIY VA IJTIMOIIY SOHADAGI RIVOJI**

O‘qituvchi: Xudayberdiyeva Xuriyat Karimberdiyevna

REJA:



1.1. Milliy tiklanish davri. Jamiyatni siyosiy sohada rivoji.



1.2. Mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi rivoji va fuqarolik jamiyati.


Jamiyat hayoti sohalaridagi tub o'zgarishlar

Siyosiy sohadagi tub o'zgarishlar

Ijtimoiy hayot sohasidagi tub o'zgarishi

G'oyaviy-mafkuraviy sohadagi tub o'zgarishlar

Milliy ma'naviy tiklanish



Mamlakatimizning siyosiy hayotidagi demokratik o'zgarishlar

Avvalo shuni aytish kerakki, o'z yurtida ozod va erkin hayot, adolatli jamiyat barpo etishdek ulkan maqsadni o'z oldiga qo'ygan har qanday xalq, har qanday millat og'ir, mashaqqatli va murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi

Kelajakka katta umid va ishonch bilan qarab, hamisha sabr-matонат bilan yashagan o'zbek xalqi ham 1991-yil 31-avgustda muqaddas orzusiga erishdi – jonajon Vatanimiz o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritdi.

O'zbekiston Respublikasining suvereniteti va davlat mustaqilligini, sarhadlarimiz daxlsizligi, xalqimizning tinch-osooyishta hayoti hamda milliy manfaatlarimizni ishonchli himoya qilishga qodir bo'lgan Qurolli Kuchlar tashkil etildi. Milliy valyutamiz – so'm joriy etildi va oltin-valyuta zaxiralarimiz shakllantirildi

Hech shubhasiz, istiqlol yillarida yurtimizda yangi davlat va jamiyat qurish yo‘lida tarixiy ishlar amalga oshirildi, mard va olijanob xalqimizning bukilmas irodasi va ulkan salohiyati bilan katta marralar zabt etildi. Tarixan qisqa muddatda mamlakatimiz Konstitutsiyasi – Asosiy qonunimiz ishlab chiqildi va qabul qilindi.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYASI

Referendumda ovoz berishda ishtirok etgan 16 667 097 nafar fuqarolarning yarmidan ko‘prog‘i, ya‘ni 15 034 608 nafari yoki 90,21 foizi referendumga qo‘yilgan “Siz “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunini qabul qilasizmi?” degan masalaga “Ha” deb yoqlab ovoz berdi.

Bugungi kunda O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormoqda.

Ta’kidlash kerakki, Yangi O‘zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan obyektiv zaruratdir.

Yangi O‘zbekiston – demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume’tirof etilgan norma va prinsiplarga qat’iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do‘stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo‘lgan davlatdir.

Yangi O‘zbekiston – bu, avvalo, yangicha iqtisodiy munosabatlar, yangicha iqtisodiy dunyoqarash demakdir.



shuning uchun ham biznesni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik va xususiy mulkni himoya qilish barcha iqtisodiy islohotlarning bosh masalasi bo‘lib qolmoqda.

Shu bois mamlakatimiz iqtisodiy tizimi to‘liq qayta qurilmoqda, qanchalik og‘ir bo‘lmasin, bozor mexanizmlarini amalda joriy etishni boshladi.

Yangi O‘zbekistonda kichik va xususiy biznes subyektlari soni keyingi paytda ikki barobar ko‘paydi, ushbu tarmoqdagi juda ko‘plab korxonalar faqat keyingi besh yilda tashkil etilgan. Bu esa mamlakatimizda muhim ijtimoiy qatlam – o‘rta sinfning kuchayishi uchun puxta zamin bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning ta'lim olishi, mehnat qilishi, bilim va qobiliyatini ro'yobga chiqarishi uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda



Yoshlar – xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi. Keng ko‘lamli islohotlarimizni samarali amalga oshirishda ular hal qiluvchi kuch bo‘lib maydonga chiqmoqda. Aynan zamonaviy bilim olgan, ilg‘or kasb-hunarlarini, innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan o‘g‘il-qizlarimiz mamlakatimizni yana-da taraqqiy ettirishda yetakchi o‘rin tutadi.

Imom Buxoriy bobomiz to‘plagan muborak hadislardan birida: **“Yoshlikda o‘rganilgan ilm toshga o‘yilgan naqsh kabidir”**, deb aytiladi.


O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni:



**637-son, 2020 yil 23-sentabr
qabul qilingan, XI bob, 75 modda.**

**464-I-son, 1997 yil 29-avgustda
qabul qilingan, V bo‘lim, 34 modda;**

**636-XII-son, 1992 yil 2-iyulda
qabul qilingan, VII bo‘lim, 44
modda;**



Ta'lim turlari quyidagilardan iborat:



maktabgacha ta'lim va tarbiya;



umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;



professional ta'lim;



oliy ta'lim;



oliy ta'limdan keyingi ta'lim;



kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;



maktabdan tashqari ta'lim.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 7-modda.

Hozirgi vaqtda yurtimizda **“Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi”** degan g‘oya asosida maktab ta’limi tizimida ham katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.



Respublikamizning barcha hududlarida Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashgan maktablar soni ko‘payib bormoqda



“Besh muhim tashabbus” dasturi, “Barkamol avlod” markazlari doirasida yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish uchun turli xil to‘garaklar tashkil etilib, maktab o‘quvchilari ushbu to‘garaklarga jalb etildi. Shuningdek, ta’lim muassasalari, kutubxona va o‘quv markazlariga juda ko‘plab san’at va sport inventarlari, kompyuterlar va turli xil kitoblar yetkazib berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunining mazmun - mohiyati

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida” Qonuni 1992-yil 14-yanvarda qabul qilindi.



2015-yil 4-sentabrda “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi

Mazkur qonun 8 ta bob va 47 ta moddadan iborat bo‘lib, 2020-yil 3-dekabrda 8-moddasining ikkinchi qismi o‘n to‘rtinchi xatboshisiga, 10-moddasining birinchi qismi to‘rtinchi xatboshisiga, 32 moddasining birinchi qismiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi

- **E'tiborlaringiz uchun rahmat!**

- **rasmiy veb-sayt**

- **<http://www.samsportedu.uz>**

- **maxsus rasmiy telegram kanal**

- **<https://t.me/sfmalaka>**

